

SHIRINOVA Feruza Atxamovna
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
O'zbek va xorijiy tillar kafedrası
katta o'qituvchisi, PhD

TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

THE PRINCIPLES FOR DEVELOPING INDEPENDENT LEARNING SKILLS OF STUDENTS

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim talabalarining mustaqil faoliyatini tashkil etishda pedagogik sharoitlarni inobatga olgan holda innovation muhitni yaratish orqali ta'lim samaradorligini oshirish va talabalarining chet tilini o'rganishga innovation yondashuv haqida so'z boradi. Shu bilan birga, ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanib, kadrlar saviyasini oshirish, ta'lim tizimiga yangi ilmiy g'oyalar, zamonaviy yondashuvlar va uslublarni eksperimental joriy etish hamda ulardagi muammolarni bartaraf etish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, mustaqil o'quv-biluv faoliyat, uzluksiz ta'lim, intensiv ishlash, individuallashtirilgan yondashuv, Moodle masofaviy ta'lim tizimi, elektron hujjatlar.

Annotation. In this article is described some samples for organizing students autonomous learning in pedagogical circumstances, it is also mentioned to increase educational efficiency and motivate students learning English which related to their profession with forming innovative atmosphere. Distance learning plays an important role to improve learning English autonomously of the medical and pharmaceutical students. At the same time, one of the priority tasks of reforming the educational system, improving it and increasing the quality level is reflected in the improvement of personnel level, the experimental introduction of new scientific ideas, modern approaches and methods to the educational system, and the elimination of their problems.

Keywords: distance teaching, autonomous learning, continuing education, intensive working,

individual approach, Moodle distance teaching system, electronic documents.

Аннотация. В этой статье рассматривается повышение эффективности обучения и инновационный подход к изучению иностранного языка студентами вузов путем создания инновационной среды с учетом педагогических условий организации их самостоятельной деятельности. Также освещаются вопросы реформирования системы образования, повышения квалификации кадров, внедрения новых научных идей, современных подходов и методов обучения, а также решения проблем, возникающих в этой сфере.

Ключевые слова: дистанционное обучение, самостоятельная учебная деятельность, непрерывное образование, интенсивная работа, индивидуальный подход, Moodle система дистанционного обучения, электронные документы.

KIRISH

Bugungi zamonaviy jamiyat intellektual boylikning asosi hisoblanadigan "inson kapitali" uchun chet tillarini erkin bilish, chet tillarini o'zlashtirish ijtimoiy zaruratga aylandi. Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim-tarbiya jarayonlarini boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni, ya'ni ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va zamon talablariga moslash, mamlakat ta'lim strategiyasining milliy modeli bilan uyg'unlashtirish kabi loyihalarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Darhaqiqat, talaba-yoshlarni raqobatbardosh mutaxassislar sifatida mamlakat iqtisodiyotini o'stirishga maqsadli tayyorlash bugungi kunning asosiy talabidir. Xususan, xalqaro tillardan birini muloqot darajasida egallash, og'zaki va yozma nutqni o'quv dasturi talablari doirasida tushunish, o'z fikrini chet tilida bayon etishga bilim va malakalarni egallash bugungi kunda har qanday kasbiy faoliyatida asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shu bois, bo'lajak kadrlar jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalana olishlari, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishlari uchun va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratib berish bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Til o'qitishga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida, xususan, tibbiyot-

farmasevtika yo‘nalishida chet tilini ham muloqot tili sifatida, ham kasbiy-sohaviy til sifatida o‘rgatilishi globallashtirishni tezlashtirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. [1].

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Jahonning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari professorlari bilan hamkorlikda ishlash, ingliz tilini o‘qitishda yangi zamonaviy yondashuvlarni yo‘lga qo‘yish imkonini berdi. Mamlakatimizdagi nofilologik ingliz tili bilish darajasi turlicha bo‘lgan talabalarining tahsil olishi darslarni differentsiallashgan, individuallashtirgan ta‘lim prinsiplariga asoslanib tashkil qilish, talabalarining mustaqil o‘quv-biluv faoliyatiga ham shunday yondashishni taqozo etadi. Bunday vaziyatda pedagog talabalar darajalarini uzluksiz va intensiv ishlash orqali tenglashtira oladi, bunda esa masofaviy ta‘lim vositalari qo‘l keladi [2].

Ko‘rinadiki, xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo‘lsak, raqamli iqtisodiyot hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog‘liqni saqlash, fan-ta‘lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o‘zining yuqori samaralarini bermoqda. Jahon tajribasida raqamli iqtisodiyotga o‘tishning jadal sur‘atlarda rivojlanayotganligini:

- fan-texnika taraqqiyotining jadallashishi natijasida ommaviy ravishda oliy ta‘limga ega bo‘lish zarurati yuzaga kelgani;

- zamonaviy ishlab chiqarishlar va xizmat sohalarida ish bilan band xodimlarning o‘z bilim va malakalarini muntazam yangilab borishga ehtiyojlari tufayli ta‘limda uzluksizlik xususiyati yuzaga kelayotganligi;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiy etishi natijasida masofadan turib ta‘lim olish imkoniyatlarining kengayib borayotgani;

- eng nufuzli darsliklar, qo‘llanmalar, o‘z sohasining mashhur olimlari va mutaxassislari ma‘ruzalarining raqamlashtirilishi natijasida bilimlarni mustaqil egallash imkoniyatlari yuzaga kelgani;

- ta‘lim olishda hududiy va vaqt to‘siqlarining bartaraf etilishi, ya‘ni hatto xorijdagi nufuzli universitetlarda ham masofadan turib ta‘lim olish, fanlarni mustaqil o‘rganishni shaxsiy kun tartibi asosida amalga oshirish imkoniyatlarining yuzaga kelayotganligi kabilar bilan izohlanadi.

Nofilologik yo‘nalishlardagi oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kasbiy-sohaviy ingliz tilini bilish darajasi ta‘lim jarayonidagi asosiy muammolardan biridir. Ta‘kidlash kerakki, ingliz tilini sohaviy o‘rganish nafaqat talabalar, balki, o‘qituvchilar uchun ham o‘ziga xos muammolar tug‘dirib kelgan. Ushbu muammolarni hal qilishda masofaviy ta‘lim tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu shundan dalolat beradiki, oliy ta‘limning tibbiyot yo‘nalishi ta‘lim jarayonini tibbiyotga oid materiallar bilan to‘ldirish orqali kelajakdagi tibbiyot xodimlarining samarali fikrlashini shakllantirish, shaxsiy intellektini o‘stirishga, kelajakda mas‘uliyatli kasblarda faoliyat yuritishlari jarayonida mustaqil fikrlash va mustaqil faoliyat olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishga olib keladi” [3].

Muammoning naqadar dolzarbligi kelajakda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va o‘quv jarayoni davomida ularni sohaviy ingliz tili bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda maqsadli o‘qitishga yo‘naltirilgan loyihalarni ishlab chiqish muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu fikrlarning dalili sifatida O.V.Nalitkinaning “oliy ta‘lim muassasalarining nofilologik yo‘nalishlarida talabalarining mustaqil o‘quv-biluv faoliyatlarini tashkil etishda internet resurslarini o‘z ichiga olgan o‘quv-uslubiy majmuadan foydalanish, talabalarining bilim darajalarini tenglashtirishga sohaviy chet tiliga yo‘naltirilgan kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga mustahkam zamin yaratadi”. Masofaviy ta‘lim tizimiga asoslangan sohaviy chet tilini o‘qitishda dastlabki e‘tibor berilishi kerak bo‘lgan jihat ta‘limni maqsadli loyihalash prinsiplaridir. Bunda ingliz tilini o‘qitishdagi jarayonni maxsus maqsadlarda yo‘naltirilganligi, sohaga oid terminlar bilan boyitilganligi, soddadan murakkablikka qarab borishi, vazifalarni bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, osondan qiyinga qarab tuzish kabi tamoyillar qo‘yiladi.

METODOLOGIK O‘RGANISH

Ma‘lumki, ingliz tilini o‘qitish uchun zamonaviy texnologiyalarni izlash va tatbiq qilish bir qator holatlarga bog‘liq. Birinchidan, an‘anaviy tizim bo‘yicha ingliz tilini o‘qitishning samaradorligi ko‘p jihatdan ushbu tilni bilish darajasiga qo‘yiladigan talabalarga javob

bermaydi. Shu bilan birga, an'anaviy usullardan foydalanmasdan turib yangi texnikani qo'llash bir qator qiyinchilik va tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Ingliz tilini sohaviy o'qitishda masofaviy ta'lim tizimidan foydalanish samarali va istiqbolli bo'lib, o'quv jarayoni an'anaviy ta'limga nisbatan o'quvchilar uchun yanada qiziqarli bo'ladi: talaba darslikdagi statik eskirgan matnlar bilan taqqoslaganda qiziqarli mintaqaviy geografik va autentik materiallardan foydalanish uchun cheksiz imkoniyatga ega bo'ladi. Yana shuni aytish kerakki, internet yordamida sohaga tegishli bo'lgan ingliz tilidagi autentik materiallarni topish va sohaga oid jahon bozorida sodir bo'layotgan ma'lumotlardan ingliz tilida xabardor bo'lish imkoni yaratiladi, chunki ilgari ingliz tilida chop etilgan gazeta va jurnallarni topish qiyin bo'lgan. O'quv jarayoni onlayn tashkil qilinganda ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitishda o'qituvchi ikki barobar qiyinchilikka duch keladi: birinchidan, ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rganuvchilar uchun materiallarni dizaynlash bo'lsa; ikkinchidan, barcha imkoniyatlarni hisobga olishga asoslangan yangi texnologiyalar bilan ta'minlangan ta'limiy kurslarni o'zlashtirish talab etiladi [4]."

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'limga innovatsion yondashuv ijtimoiy hayotning yaxshilanishi barobarida, fan, texnika va ishlab chiqarish integratsiyasiga va mamlakat taraqqiyotini jadal o'sishiga olib keldi. Ayni vaqtda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatini beruvchi innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqilishini ta'minlash vazifalarini ham o'rta qo'ydi.

Bu pedagoglardan o'z faniga zamonaviy yondashishni, jahonning ilg'or mamlakatlarida sinovdan o'tgan samarali usullardan foydalanib, nafaqat auditoriyadagi, balki auditoriyadan tashqari bo'lgan mustaqil ta'lim jarayonini ham talabalarining ehtiyojlarini o'rganib, tahlil qilgan holda loyihalashtirishni talab qilmoqda. M.R. Kadirova talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda internet va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish mustaqil ishlar samaradorligini oshirishini ta'kidlab, uning sharti va ijro maqsadi aynan talabada mustaqillikning shakllanishi va takomillashishi ekanini ta'kidlaydi [5].

Ma'lumki, ijodkorlik o'zi ustida mustaqil ishlashdan boshlanadi. Albatta, fikrlash faoliyati va ijodkorlikni rivojlantirish uchun avval talabalarni mavjud muammolarning yechimini topishga o'rgatish kerak bo'ladi. G.M. Anorqulova va M. Toshevalar fikricha, o'qituvchining talabalar o'quv-izlanish faoliyatini muammoli vaziyatni yaratish orqali tashkil etishda talabalar diqqatini yuzaga kelgan muammoli vaziyatning yechimiga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, yechimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan bo'lishi lozim [6].

Avstriyalik olim C.M. Turpin, innovatsiya – bu g'oyani yangilikka aylantirish, rejalashtirish, texnologiya va texnikani amalda qo'llash, ta'limda innovatsiya esa ta'limni axborotlashtirish va iste'molchini mustaqil ijod qilishga, tanqidiy fikrlashga, o'zi ustida mustaqil ishlashga va doimiy ravishda bilimlarni yangilab turishga undashdir [7] degan g'oyani ilgari suradi.

B.N. Guzanov ta'kidicha esa, oliy ta'limda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish talabalarining o'quv rejadagi fanlarni o'zlashtirishi, o'qituvchilarning talabalarda mustaqil ishlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi mas'uliyatini oshirish, talabalarining kasbiy layoqatini rivojlantirishda mustaqil ishlarning rolini orttirib borish bilan bog'liq [8].

A. Marsap fikricha, agar ta'lim muhitida tayyor axborotni yetkazish yoki o'qitish vazifasini bajaruvchi pedagoglarning o'rnini ijodkorlikka yo'llanma beruvchi pedagog-fasilitator egallasa, talabalar axborot to'plashda faollik va tashabbuskorlikka o'rgatilishi orqali ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchi sifatida ta'lim muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga yo'naltiriladilar [9]. Ko'rinadiki, mustaqil faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan uni oqilona tashkil eta olish qobiliyatini talab etadi.

NATIJALAR TAHLILI

Umuman olganda, o'quv kurslarini shunday loyihalash kerakki, u talabalarni har qanday vaziyatda ham til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini orttira oladigan, masofadan qat'iy nazar mashg'ulotlarni bajarishga intiladigan va o'z intellektual salohiyatini rivojlantirib boradigan

darajaga olib chiqadigan bo'lishi kerak. Buning uchun avval loyihalash tamoyillarini mukammal ishlab chiqish va shu orqali mukammal loyiha shakliga erishish mumkin. Albatta, har bir ishda samarali natijaga erishishda amaliyotda qo'llash, kuzatish, natijalarni tahlil qilish orqaligina yutuqlarni ko'rish va kamchiliklarni bartaraf etish mumkin bo'ladi. Xususan, mustaqil ta'limni masofaviy ta'lim vositasida tashkil etish talabalardagi motivatsiya va qiziqishlarni uyg'otishda, talabalarining mobilligini oshirishda, aqliy qobiliyatni rivojlantirishda, ularda tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni uyg'otishda, olingan ko'nikma va malakalarni mustahkamlashda va oliy ta'lim muassasalarini o'zaro raqobatlashish imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

Qayd etilgan fikrlar nofilologik yo'nalishlarda talabalarining mustaqil ishlarini samarali yo'lga qo'yish orqali ularning kasbiy-sohaviy kompetentligini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarni bilish eng muhim omillar ekanligini ko'rsatadi. Ko'rinadiki, bo'lajak mutaxassislarni raqobatbardosh darajaga yetkazib tayyorlash uchun ularning aynan shu yo'nalishdagi amaliy ko'nikmalarini shakllantirib borish, talabalarining mustaqil o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish bugungi kunda pedagogik zaruratga aylandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta'limning samaradorligi o'quv materiallarining to'g'ri taqdim etilishiga ham bog'liq bo'lib, biroq bugungi kungacha masofaviy ta'lim texnologiyalari yordamida talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishni pedagogik-didaktik loyihalash masalasi nazariy jihatdan ham yetarlicha asoslanmaganligi, xususan, nofilologik yo'nalishlarda talabalarining sohaviy chet tilidan mustaqil ishlarini masofaviy boshqarish, ularni qabul qilish va baholash shakllari ishlab chiqilmagani bugungi kunning dolzarb va muammoli masalalaridan biridir.

Talabalarining mustaqil ta'lim olishini rivojlantirishda bugungi kunning qator imkoniyatlari zamonaviy ta'lim turiga aylangani bois, uning barcha imkoniyatlarini o'rganib chiqish va amaliyotga tadbiq qilish bugungi kunda pedagoglarning mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Муханов С.А. Технология проектирования дистанционного курса “дифференциальные уравнения” с использованием Moodle” // Журнал “Наука и школа”, 2014.
2. Панишева Е.В. Информационные технологии в образовании / Журнал “Образование и наука”, 2015.
3. Боброва Н.В. Трудности профильно-ориентированного обучения английскому языку в техническом вузе / “Привольжский научный вестник”, 2015.
4. Нейман С.Ю. Принципы построения системы дистанционного обучения иностранным языкам / “Санкт-Петербургский образовательный вестник”, 2016.
5. Кадирова М.Р. Тилларга ихтисослашмаган олий таълим муассасалари талабаларига чет тилини ўргатишда ижодий фаолликни модернизациялаш: пед.фан.номз. ... дисс. – Т., 2018. – 64 б.
6. Аноркулова Г.М., Тошева М. Талаба шахсида мустақил фикрни шакллантиришда муаммoli вазиятлардан фойдаланиш. // Ж. Фан ва технологиялар тараққиёти. – Т., 2018. – №2. – Б. 217.
7. Зайцева О.Н. Технология дистанционного обучения в процессе организации самостоятельной работы студентов медицинских специальностей вузов: на примере изучения математических дисциплин: автореф. дисс. – Москва, Орел, 2013.
8. Turpin C.M. Blended learning and its effect on student achievement: an action research study: PhD diss. – Columbia, 2018.
9. Гузанов Б.Н., Морозова Н.В. Организация самостоятельной работы студентов ВУЗА в условиях реализации многоуровневой модели обучения. Монография. – Россия, 2014.
10. Marsap A. The integration of distance learning via internet and face to face learning: PhD diss. – India, 2009. – P. 176.